

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI PEDAGOGIK USULLARI

Arslonov Jasurbek Mamasharifovich

Farg'ona davlat universiteti Mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18308908>

Annotatsiya

Ushbu maqola zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali pedagogik usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ekologik madaniyat tushunchasi, uning tarkibiy komponentlari - bilim, qiziqish, amaliy ko'nikmalar va xulq-atvor, ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida interfaol darslar, loyihaviy faoliyat, ekologik ekskursiyalar, ko'rgazmali materiallardan foydalanish, amaliy ekologik ishlar, musobaqalar va zamonaviy texnologik metodlar kabi samarali pedagogik usullar aniqlangan. Ushbu usullar o'quvchilarda ekologik ongni rivojlantirish, tabiatga hurmat va mas'uliyatni shakllantirishga yordam beradi. Maqola pedagoglar uchun maktab va boshqa ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Global, resurs, ekologik madaniyat, ekologik bilim, **interfaol darslar, loyihaviy faoliyat, ekskursiyalar, ko'rgazmali materiallar, texnologik metodlar**, ekologik xavfsizlik, ekologik tarbiya.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar keskinlashib, tabiiy resurslarning kamayishi, havoning, suvning va tuproqning ifloslanishi global xavfga aylanmoqda. Shu sababli yosh avlodni ekologik ong va mas'uliyat bilan tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ekologik madaniyat - bu insonning tabiatga hurmat bilan qarashi, uni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish orqali ular nafaqat tabiatni himoya qilishga, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan mas'uliyatli shaxs sifatida rivojlanadi. Shu bilan birga, ekologik bilim va amaliy ko'nikmalarni maktab ta'limi orqali tizimli tarzda berish o'quvchilarning xulq-atvorida barqaror o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish - bu nafaqat ekologik bilim berish, balki ularni amaliy faoliyatga jalb qilish va tabiatga mas'uliyatli qarashni rivojlantirish jarayonidir. Samarali pedagogik usullar: **interfaol darslar, loyihaviy faoliyat, ekskursiyalar, ko'rgazmali materiallar, amaliy ishlar, musobaqalar va texnologik metodlar** orqali ekologik ongni mustahkamlash mumkin. Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, suv va havo ifloslanishi, chiqindilar muammosi kabi ekologik inqirozlar insoniyat oldida jiddiy muammolar sifatida turibdi. Ushbu holatda ekologik madaniyatga ega, tabiatga ongli munosabatda bo'ladigan shaxslarni tarbiyalash ta'limning muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanishni yo'lga qo'yish, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni kamaytirish, ekologik monitoring tizimini takomillashtirish, aholining

ekologik madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, shuningdek, ekologiya sohasida davlat va nodavlat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ekologik madaniyat - bu insonning tabiatga bo'lgan ongli munosabati, atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyatidir. U inson tafakkurida shakllanadigan ekologik ong, axloqiy qarashlar va amaliy faoliyatning uyg'unligidir. Bugungi kunda inson faoliyati natijasida global ekologik muammolar keskin tus olmoqda: atmosfera va suv havzalarining ifloslanishi, o'rmonlarning qisqarishi, hayvonot va o'simlik dunyosining yo'qolib borishi shular jumlasidandir. Bu holatni oldini olishning eng muhim yo'li - jamiyatda, ayniqsa yoshlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirishdir.

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari sifatida, ta'lim jarayonida o'quvchilarga ekologik bilim berish, ularning tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirish pedagogik yondashuvni talab etadi. Ekologik tarbiya nafaqat biologiya yoki geografiya kabi an'anaviy fanlarda, balki barcha fanlar integratsiyasi asosida olib borilishi lozim. Bu orqali o'quvchi ekologiyani faqat ilmiy tushuncha sifatida emas, balki kundalik hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qila boshlaydi. Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Atrof-muhit to'g'risida ilmiy, tizimli va zamonaviy bilimlar berish; O'quvchilarda tabiatga nisbatan mehr, g'amxo'rlik, ehtiyotkorlik tuyg'ularini rivojlantirish; Ekologik muammolarni aniqlash va ularga yechim topishga qiziqish uyg'otish; Amaliy ekologik faoliyatga jalb qilish (chiqindi yig'ish, daraxt ekish, kuzatuv olib borish). Fanlar kesimida ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish: turli o'quv fanlari ekologik madaniyatni shakllantirishda katta salohiyatga ega: biologiya fanida o'simlik va hayvonot olami, tabiiy muvozanat, ekologik zanjirlar, inson va biosfera o'rtasidagi aloqalar haqida tushunchalar beriladi. Geografiya darslarida yer yuzasida sodir bo'layotgan ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslardan foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Kimyo fanida kimyoviy moddalarning tabiatga ta'siri, sanoat chiqindilari va ularning zarari haqida bilimlar beriladi. Texnologiya darslarida ekologik toza mahsulotlar, qayta ishlash va chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalariga e'tibor qaratiladi. O'zbek tili va adabiyot fanlarida ekologik mazmundagi she'r, hikoya va matnlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarda badiiy-estetik yo'sinda ekologik ong shakllanadi.

O'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda faqat nazariy bilim berish yetarli emas, balki ularni amaliy faoliyatga jalb etish ham muhimdir. Buning uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: loyiha ishlari - o'quvchilar ekologik mavzuda mustaqil izlanish olib borib, yechimlar ishlab chiqadilar; kuzatuv va tajribalar - maktab atrofidagi o'simlik va hayvonot olamini kuzatish, chiqindi tahlili, havo sifati bo'yicha eksperimentlar; muammoli savollar va bahslar - ekologik mojarolarni muhokama qilish, o'z fikrini asoslashga o'rgatish; rolli o'yinlar - o'quvchilarni ekolog mutaxassisi, fermer yoki ekologik inspektor rovida ishtirok ettirish; video materiallar va hujjatli filmlar - ekologik mavzudagi filmlar orqali real voqealarni tahlil qilish darsdan tashqari ishlar orqali ekologik tarbiya yanada samarali bo'ladi. Masalan: tabiat qo'ynida ekskursiyalar - o'quvchilarni mahalliy landshaftlar, daryolar, bog'lar bilan tanishtirish; "Yashil maktab" loyihasi - maktab hududida daraxt ekish, gulzorlar barpo etish; ekologik aksiyalar - "Toza havo", "Chiqindisiz hayot", "Tabiatga mehr" kabi ijtimoiy tadbirlar; ekologik to'garaklar - ixtiyoriy asosda ekologiyaga qiziqqan o'quvchilar bilan faoliyat olib borish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining roli va mas'uliyati o'qituvchi ekologik tarbiyada

yetakchi shaxs hisoblanadi. Uning ekologik dunyoqarashi, shaxsiy namunasi, o'quvchilarga bo'lgan e'tibori ushbu jarayonda muhim o'rin tutadi. U nafaqat bilim beradi, balki amaliy faoliyatga yetaklaydi, ekologik harakatlarda ishtirok etishga ilhomlantiradi. O'qituvchi: o'quvchilar bilan ekologik loyiha va tadbirlar tashkil qiladi; darslikdan tashqari ekologik materiallar bilan ishlaydi; mahalliy ekologik muammolarni tahlil qilishga yordam beradi; tabiatni asrashda o'zi shaxsiy namuna bo'ladi.

Ekologik madaniyat - bu zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, uni yosh avlod ongiga singdirish orqali biz kelajak avlodlarga sog'lom muhitni meros qilib qoldirishimiz mumkin. Dars jarayonida bu madaniyatni shakllantirish o'ziga xos metodika va yondashuvni talab qiladi. Shu bois, har bir o'qituvchi ekologik tarbiyaga alohida e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar keskinlashib borayotgani jamiyatning barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Ayni paytda inklyuziv ta'lim tizimining kengayishi turli imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarda ekologik ong, ekologik mas'uliyat va madaniyatni shakllantirishning o'ziga xos pedagogik yondashuvlarini talab qiladi. Inklyuziv sinf bu o'zlashtirishi turlicha, jismoniy va psixologik rivojlanishida farq bo'lgan bolalar birgalikda ta'lim oladigan muhit bo'lib, unda ekologik tarbiya jarayoni adaptiv, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ekologik madaniyat - bu tabiatni anglash, ekologik qadriyatlarga hurmat, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ongli xatti-harakatlar majmuidir. Inklyuziv ta'limda bu tushuncha yanada keng talqin qilinadi va quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Tabiat hodisalarini shaxsiy idrok darajasiga mos tushuntirish; ekologik faoliyatga barcha o'quvchilarning teng ishtirokini ta'minlash; ekologik muammolarni bolalarning jimoniy va psixologik holatiga mos o'rganish; ekologik mas'uliyatni turli qobiliyatlardagi bolalar bilan hamkorlikdan tarbiyalashdan iborat bo'ladi. Inklyuziv sinflarda ekologik madaniyatni shakllantiruvchi asosiy pedagogik omillar; Individual yondashuv va differensial ta'lim. O'quvchilarning rivojlanish darajasi, qobiliyati, o'zlashtirish tezligi turlicha bo'lgani sababli ekologik mavzularni tushuntirishda individuallashtirilgan topshiriqlar, moslashtirilgan ko'rsatmalar va turli darajadagi vazifalardan foydalanish zarur. Masalan, og'zaki tushuntirishni yaxshi qabul qiladigan o'quvchi uchun hikoya usuli, visual tasvirlar orqali o'rganuvchi o'quvchi uchun esa rasmlar, diagrammalar va videoroliklar samarali bo'ladi. Vizual-didaktik vositalardan keng foydalanish. Iklyuziv sinflarda ekologik madaniyatni shakllantirishda rasmlar, modellar, tajriba natijalari, ekologik plakatlari, maketlar, tabiatda olingan real obyektlar muhim rol o'ynaydi. Bu usul ko'rgazmalilik tamoyilini ta'minlab, o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bu tamoillarni rivojlantirish uchun ijobiy va xavfsiz psixologik muhit va faoliyat yaratish kerak va zarur. Ekologik faoliyatlar jamoaviy hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash va hurmat muhiti orqali yanada samarali bo'ladi. Inklyuziv sinfda o'quvchilar bir-birining imkoniyatlarini qadrlashi, o'zaro hurmat ruhida faoliyat yuritishi ekologik mas'uliyatning shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Integrativ o'quv faoliyatlarida va dars jarayonida ekologik loyihalar, tabiatni kuzatish ishlari, kichik tajribalar, maktab hovlisida ekologik tadbirlar, daraxt ekish aksiyalari kiritilishi o'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qiladi. Bunday ishlarda barcha o'quvchilarning imkoniyatiga mos rollar taqsimlanadi. Ushbu faoliyat turlarini rivojlantirishda O'qituvchining inklyuziv kompetensiyasi yuqori bo'lish kerak.

O'qituvchi turli ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha pedagogik bilimlarga ega bo'lishida ekologik tarbiya metodikasini chuqur bilishi ijodkorlik bilan darslarni tashkil etishi lozim bo'ladi. O'qituvchining kommunikativ ko'nikmalari ham ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish uzluksiz, tizimli va amaliy yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni talab etadi. Samarali pedagogik usullardan kompleks foydalanish orqali ekologik ongli, mas'uliyatli va tabiatga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo'ladigan barkamol avlodni tarbiyalash mumkin va zarur bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qosimova D., To'rayev A. "Ekologik ta'lim va tarbiya asoslari." – Toshkent: "Fan", 2018.
2. Shodmonov S., Quronov M. "Umumiy pedagogika." – Toshkent: "Ilm ziyo", 2020.
3. "Boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiya masalalari" – Metodik qo'llanma. – Toshkent: "O'qituvchi", 2023.
4. KILIÇ ATEŞ S., BERİKBAEV A. A. Pedagogical competencies in art education and the impact of educational reforms: The case of Uzbekista // Balikesir University Journal of Social Sciences Institute. – 2025.
5. Hamidov D. O'qitishning ahamiyati // Oliy ta'lim muassasalarida muhandislik kompyuter grafikasi. Xalqaro ilmiy tadqiqotchilar jurnali (IJSR) Indekslish. – 2024.
6. Alikulovich, Berikbayev Alisher. "Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'llari." Science and innovation 3.Special Issue 16 (2024).